

XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PIRLS) NING O'QUVCHILAR SAVODXONLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

To‘xtasinova Munira Ibragimovna

Qo‘qon DPI, o‘qituvchisi,

E-mail: biloliddin19860419@gmail.com

Po‘latova Maftuna Dadajon qizi

Qo‘qon DPI, talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasini aniqlab beruvchi xalqaro tadqiqot dasturi PIRLSning pedagogik xususiyatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: PIRLS, ishtirokchi anketasi, badiiy matnlar, axborot beruvchi matnlar, o‘qish savodxonligi, me’yoriy talablar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются педагогические особенности PIRLS, международной исследовательской программы, которая определяет уровень понимания текста учениками начальной школы при чтении.

Ключевые слова: PIRLS, анкета участника, художественные тексты, информативные тексты, грамотность чтения, нормативные требования.

“2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida ko‘rsatib o‘tilgan yetti ustuvor yo‘nalish asosida ta’lim sohasida ham bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash

sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida PIRLS, TIMSS, PISA va TALIS xalqaro tadqiqotlarini O‘zbekistonda joriy etilishi belgilab qo‘yilgan bo‘lib, mazkur tadqiqotlarni joriy etish maqsadida Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etilgan. Ushbu xalqaro baholash dasturlari va ular doirasidagi tadqiqotlar Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan muayyan davriylik asosida dunyo mamlakatlari bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

Xalqaro baholash dasturiga tayyorgarlik 3-sinf va 4-sinf o‘quvchilari sinfdan tashqari o‘qish darslari jarayonida, o‘qish darslari jarayonida, o‘qish fani doirasida tashkil etilgan fan to‘garaklari jarayonida tashkil etiladi. PIRLS xalqaro baholash dasturi o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma’no hosil qila olish qobiliyati hisoblanadi. O‘quvchilar matn ustida mushohada yuritish bilan bir qatorda samarali o‘qish texnologiyalarini ongli ravishda tanlab qo‘llaydilar. PIRLS tadqiqotlariga tayyorgarlik ko‘rishda matnlarning turlariga ahamiyat berish ham maqsadga muvofiqdir. Matnlar o‘z navbatida badiiy matnlar va axborot beruvchi matnlar turlariga bo‘linadi. Ushbu matnlar o‘quvchilarga matnni o‘qish jarayonida badiiy tajriba orttirish, axborotni olish, o‘zlashtirish va undan foydalanishni o‘rgatadi. Badiiy matnlarni o‘qish jarayonida o‘quvchilar voqeа va hodisalar, voqeа aks ettrilgan joy, obrazlar, sabab va oqibatlar, qahramonlar, asar muhiti, hissiyotlar, tajribalar, xarakterlar bilan yoritilgan matnni o‘qib o‘zlashtiradi. Matndan olingan xulosasini do‘srtlari, sinfdoshlari, oila a’zolari bilan baham ko‘radi. Ushbu turdagи matnlardan olingan tasavvur real hayotda bo‘lмаган bo‘lsада, bolada huddi hayotda, ko‘z o‘ngida ro‘y berayotgandek tasavvur uyg‘otadi. Ikkинчи түркүм matnlар, ya’ni axborot beruvchi matnlar moddiy asosga ega bo‘lgan ma’lumotlar asosida yoziladi. Ushbu matnlarning asosiy vazifasi ma’lumot berish, axborotni real holatda yetkazib berishdan iboratdir. Matnlarda berilayotgan ma’lumotlar u yoki bu topshiriqni bajarish yoki biografik faktlar kabi to‘g‘ridan-

to‘g‘ri bayon etiladi. Ayrim matnlar manbasi aniq bo‘lgan ma’lumotlarga tayanib yoziladi. Axborot berish tipidagi matnlar o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tuziladi va o‘zgartirish kiritiladi. Ushbu matnlarga “Ulkan tish siri”, “Afrika karkidonlari va okspeker qushlari”, “Ozuqa izlab”, “Fazoga sayr” kabi matnlarni keltirishimiz mumkin.

Berilayotgan matnlar bugungi kun o‘quvchisining dunyoqarashi, badiiy didiga mos bo‘lishi lozim. Badiiy matnlardagi g‘ayritabiylilik, fantastik voqealar bolalarni hayratga solishi bilan bir qatorda, matn qahramonlari bilan birgalikda bir davrada yashashi, bir havodan nafas olishi kerak. Bola hayratlanmas, zavqlanmas ekan, matndagi hikoya va obrazlar berishi mumin bo‘lgan boshqa tarbiyaviy-ma’naviy mazmunni ham his qilmaydi. Nafaqat baholash dasturlariga tayyorgarlik jarayonida balki, doimiy ravishda badiiy asarlarni mutolaa qilish bu bolada begona matnni o‘qish jarayoniga ham hech ikkanmay kirishish imkonini beradi. Jarayonda nafaqat matabda dars va to‘garak mashg‘ulotlari jarayonida, balki oilada ham kitobxonlik madaniyatini oshirish lozimdir. Buning uchun shahar va tuman Xalq ta’limi bo‘limlari tasarrufida “Ota-onalar kitobxonlik madaniyati” markazlari tashkil etilishii, ota-onalar bilan hamkorlikda trening mashg‘ulotlari tashkil etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan Axborotnomalar. 3-soni. PIRLS. Umumiyo‘rta ta’lim muassasalarining o‘qituvchilari va o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan topshiriqlar to‘plami. Toshkent – 2021 yil.
2. Ibragimovna, Tuhtasinova Munira. "Today, there are Prestigious International Organizations that Conduct Research on the Evaluation of the Achievements of the Educational System of the Countries of the World and Help in the Implementation of Reforms." *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture* 3.11 (2022): 137-140.

3. Turakulova, Feruza Aminovna, Madaminov Tolqinjon, and Nabiiev Muxammadali. "NORBOTABIY MADRASAH." *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions* 2.06 (2021): 306-309
4. Обиджонова, Райно Набиевна, and Мунира Ибрагимовна Тухтасинова. "PEDAGOGICAL FEATURES OF FORMATION OF SELF-CONSCIOUSNESS AT STUDENTS." *Актуальные научные исследования в современном мире* 5-7 (2020): 174-177.